LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

VOYAGA YETMAGANLARNING MEHNAT HUQUQLARI: O‘QUVCHILARNING DARSDAN TASHQARI VAQTDA ISHLASHI VA QONUNCHILIKDAGI CHEKLOVLAR

Furqatov Manuchar Farruhivich

Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Elektron pochta: manucharfurkatov84@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada voyaga yetmagan shaxslarning mehnat huquqlari, xususan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining darsdan tashqari vaqtda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishining huquqiy asoslari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligida belgilangan ishga qabul qilish yoshi, voyaga yetmagan xodimlar uchun qisqartirilgan ish vaqti, mehnat shartnomasini tuzish tartibi, tibbiy ko‘rikdan o‘tish majburiyati hamda ularni zararli va xavfli ishlarga jalb etishni taqiqlovchi normalar o‘rganiladi. Shuningdek, ta’lim olish huquqi va mehnat qilish huquqi o‘rtasidagi muvozanat, amaliyotda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *voyaga yetmaganlar, mehnat huquqi, bolalar mehnati, o‘quvchilar bandligi, mehnat shartnomasi, ish vaqti, ta’lim olish huquqi, mehnat muhofazasi, qonunchilik kafolatlari.*

ТРУДОВЫЕ ПРАВА НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ: РАБОТА УЧАЩИХСЯ ВО ВНЕУЧЕБНОЕ ВРЕМЯ И ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ

Фуркатов Манучар Фаррухивич

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Студент 1 курса факультета бизнес-права и судебной защиты
Ташкентского государственного юридического университета
Электронная почта: manucharfurkatov84@gmail.com

Аннотация. В статье анализируются трудовые права несовершеннолетних, в частности правовые основы осуществления трудовой деятельности учащимися общеобразовательных учреждений во внеучебное время. Рассматриваются установленные трудовым законодательством Республики Узбекистан возраст приёма на работу, сокращённая продолжительность рабочего времени для несовершеннолетних работников, порядок заключения трудового договора, обязанность прохождения медицинского осмотра, а также нормы, запрещающие привлечение несовершеннолетних к вредным и опасным работам. Кроме того, рассматривается баланс между правом на образование и правом на труд, а также выдвигаются предложения по решению проблем, возникающих на практике.

Ключевые слова: несовершеннолетние, трудовое право, детский труд, занятость учащихся, трудовой договор, рабочее время, право на образование, охрана труда, законодательные гарантии.

LABOR RIGHTS OF MINORS: WORK OF STUDENTS OUTSIDE SCHOOL HOURS AND LEGISLATIVE RESTRICTIONS

Furqatov Manuchar Farruhivich
1st-year student, Faculty of Business Law and Judicial Protection, Tashkent State University of Law

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

E-mail: manucharfurkatov84@gmail.com

Abstract. This article analyzes the labor rights of minors, in particular the legal grounds on which students of general secondary schools may work outside school hours. It examines the minimum employment age established by the labor legislation of the Republic of Uzbekistan, the reduced working hours of minor employees, the procedure for concluding an employment contract, the obligation to undergo medical examinations, and the rules prohibiting the employment of minors in harmful and dangerous work. The article also addresses the balance between the right to education and the right to work, the problems encountered in practice, and proposals for resolving them.

Keywords: minors, labor law, child labor, student employment, employment contract, working hours, right to education, occupational safety, legal guarantees.

KIRISH. Inson huquqlari tizimida mehnat qilish huquqi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan biri hisoblanadi. Har bir inson o‘z qobiliyati, bilim va ko‘nikmalaridan foydalanish, kasb tanlash hamda mehnati orqali daromad topish huquqiga ega. Ushbu huquq voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan ham e’tirof etilgan bo‘lsa-da, ularning yoshi, jismoniy va ruhiy rivojlanish xususiyatlari sababli mehnat munosabatlarida alohida huquqiy kafolatlar va cheklovlar belgilangan.

Bugungi kunda yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktab o‘quvchilari va professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining darsdan

Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

tashqari vaqtda ishlashga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda. Bunday faoliyat ularga dastlabki mehnat tajribasini orttirish, mas’uliyat hissini rivojlantirish va moliyaviy savodxonligini oshirish imkonini beradi.

Biroq voyaga yetmaganlarning mehnat faoliyati kattalarnikidan farqli ravishda qat’iy huquqiy tartibga solinishi zarur. Chunki mehnat jarayoni ularning ta’lim olishiga, sog‘lig‘iga, ma’naviy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim. Shu sababli mazkur masalada asosiy vazifa yoshlarning mehnat qilish huquqini ta’minlash bilan birga, ularning bolalik davri, ta’lim olish imkoniyati va xavfsizligini himoya qilishdan iborat.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tahlil qilish, o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtda ishlash shartlarini aniqlash hamda mavjud muammolar yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

ASOSIY QISM (MUHOKAMA VA NATIJA).

1. Voyaga yetmaganlar mehnat huquqlarining huquqiy asoslari

Voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlari milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy hujjatlar orqali himoya qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kimning mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, munosib mehnat sharoitlarida ishlash hamda qonunda belgilangan tartibda haq olish huquqi mustahkamlangan.

Shu bilan birga, Konstitutsiyada bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiy va intellektual rivojlanishiga zarar yetkazuvchi shakllari taqiqlanishi belgilangan. Bu qoida voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini himoya qilishda konstitutsiyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktabrda qabul qilingan O‘RQ-798-sonli Mehnat kodeksi voyaga yetmaganlar mehnatini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Kodeksda yoshlarni ishga qabul qilish yoshi, ish vaqti davomiyligi, mehnat muhofazasi, ta’tillar va mehnat shartnomasini bekor qilish bilan bog‘liq maxsus kafolatlar nazarda tutilgan.

Mehnat kodeksining 118-moddasiga muvofiq, umumiy qoida tariqasida shaxslarni ishga qabul qilishga 16 yoshdan yo‘l qo‘yiladi. Biroq 15 yoshga to‘lgan o‘quvchilar ota-onasidan birining yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxsning yozma roziligi bilan o‘qishdan bo‘sh vaqtida yengil mehnat bilan shug‘ullanishi mumkin. Bunda bajariladigan ish o‘quvchining sog‘lig‘i va ma’naviy kamol topishiga zarar yetkazmasligi hamda ta’lim olish jarayonini buzmasligi shart. Demak, qonunchilik voyaga yetmaganlarning mehnat qilish huquqini mutlaq ravishda cheklamaydi, balki ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mehnat faoliyatiga jalb etish imkoniyatini yaratadi.

2. O‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtda ishlashi: shartlar va huquqiy talablar

O‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtda ishlashi yoshlarni kasbiy hayotga tayyorlashning muhim vositalaridan biridir. Biroq bunday faoliyat qonunchilikda belgilangan shartlarga muvofiq tashkil etilishi kerak.

Birinchidan, ishga qabul qilishda yosh mezoniga rioya etilishi lozim. 16 yoshga to‘lgan shaxslar umumiy tartibda mehnat shartnomasi tuzishlari mumkin. 15 yoshga to‘lgan o‘quvchilar esa faqat ota-onasidan birining yozma roziligi bilan, o‘qishdan bo‘sh vaqtida va yengil mehnat sharoitida ishlashlari mumkin.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Ikkinchidan, mehnat faoliyati ta’lim jarayoniga xalaqit bermasligi kerak. O‘quvchi ish bilan shug‘ullanishi natijasida darslarga qatnashish, uy vazifalarini bajarish, dam olish va bilim olish imkoniyatidan mahrum bo‘lmasligi zarur.

Uchinchidan, mehnat munosabatlari qonuniy rasmiylashtirilishi lozim. Ish beruvchi bilan xodim o‘rtasida mehnat shartnomasi tuzilishi, unda bajariladigan ish turi, mehnat sharoitlari, ish vaqti va mehnatga haq to‘lash tartibi belgilanishi kerak.

O‘quvchilar qonunchilik talablariga rioya etilgan holda kutubxona yoki ta’lim markazlarida yordamchi faoliyat, kompyuter savodxonligi va grafik dizayn bilan bog‘liq yengil ishlar, reklama va ijodiy loyihalar, tarjima va matn terish kabi bilim va ko‘nikmalarga asoslangan faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, faoliyat turining yengil deb baholanishi uning nomiga emas, balki real mehnat sharoitlari va voyaga yetmagan shaxsga ta’siriga bog‘liq.

3. Voyaga yetmaganlar uchun ish vaqti va dam olish bo‘yicha cheklovlar

Voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini himoya qilishda ish vaqtining davomiyligi alohida ahamiyatga ega. Mehnat kodeksida voyaga yetmaganlar uchun qisqartirilgan ish vaqti belgilangan.

Mehnat kodeksining 415-moddasiga ko‘ra, 15 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun ish vaqti haftasiga 24 soatdan, 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan xodimlar uchun esa haftasiga 36 soatdan oshmasligi kerak.

O‘quv yili davomida o‘qishdan bo‘sh vaqtida ishlayotgan o‘quvchilar uchun ish vaqti tegishli yosh toifasi bo‘yicha belgilangan eng ko‘p ish vaqtining yarmidan oshmasligi kerak. Shundan kelib chiqib, 15–16 yoshli o‘quvchilar uchun haftasiga 12 soat, 16–18 yoshli o‘quvchilar uchun esa haftasiga 18 soatlik chegara qo‘llanadi.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Mehnat kodeksining 416-moddasida voyaga yetmaganlar uchun har kunlik ish smenasining davomiyligi ham cheklangan. O‘quv yili davomida ishlayotgan 15–16 yoshli o‘quvchilar uchun ish kuni besh kunlik ish haftasida 2 soat 30 daqiqadan, olti kunlik ish haftasida 2 soatdan oshmasligi kerak. 16–18 yoshli o‘quvchilar uchun ushbu ko‘rsatkich besh kunlik ish haftasida 4 soat, olti kunlik ish haftasida 3 soatni tashkil etadi.

Mehnat kodeksining 417-moddasiga muvofiq, 18 yoshga to‘lmagan xodimlarni xizmat safariga yuborish, tungi ishlarga, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlaridagi ishlarga jalb qilish taqiqlanadi.

Bu cheklovlar o‘quvchining asosiy faoliyati ta’lim olish ekanligini huquqiy jihatdan ta’minlashga xizmat qiladi.

4. Voyaga yetmaganlarni zararli va xavfli ishlarga jalb etishning taqiqlanishi

Voyaga yetmaganlar mehnatini huquqiy tartibga solishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ularning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishdir. Yosh organizm zararli ishlab chiqarish omillari, ortiqcha jismoniy yuklama va xavfli mehnat sharoitlariga nisbatan ta’sirchan bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 354-moddasi hamda voyaga yetmaganlar mehnatini muhofaza qilishga oid boshqa normalarga ko‘ra, og‘ir ishlarda, zararli va xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarda 18 yoshga to‘lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanish taqiqlanadi.

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarni belgilangan me’yorlardan ortiq og‘ir yuklarni ko‘tarish va tashish ishlariga jalb qilish ham mumkin emas. Mazkur cheklovlar ishlab chiqarish korxonalaridan tashqari, turli xizmat ko‘rsatish va savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi ish beruvchilarga ham tegishlidir.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Mehnat kodeksining 414-moddasiga muvofiq, 18 yoshga to‘lmagan shaxslar dastlabki majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tganidan keyingina ishga qabul qilinadi. Keyinchalik ular 18 yoshga to‘lguniga qadar har yili majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim. Ushbu tibbiy ko‘riklar ish beruvchining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Mazkur normalarning asosiy maqsadi voyaga yetmaganlarning mehnat jarayonida sog‘lig‘i va xavfsizligiga zarar yetishining oldini olishdan iborat.

5. Voyaga yetmagan xodimlarning mehnatga haq olishi va ijtimoiy kafolatlari

Voyaga yetmagan shaxslar mehnat munosabatlariga kirishganidan so‘ng boshqa xodimlar kabi mehnat huquqlariga ega bo‘ladi. Ularning yoshi mehnatga haq to‘lash, xavfsiz mehnat sharoitlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqlarini cheklash uchun asos bo‘la olmaydi.

Mehnat kodeksining 420-moddasida 18 yoshga to‘lmagan xodimlarning qisqartirilgan ish vaqti davomiyligida mehnatiga haq to‘lash tartibi belgilangan. Qisqartirilgan ish vaqtida ishlayotgan voyaga yetmagan xodimlarning mehnatiga tegishli toifadagi xodimlar uchun belgilangan miqdorda haq to‘lash nazarda tutiladi. O‘quv yili davomida o‘qishdan bo‘sh vaqtida ishlayotgan o‘quvchilarning mehnatiga esa ishlagan vaqtidan yoki ishlab chiqarish natijasidan kelib chiqib haq to‘lanadi.

Mehnat kodeksining 418-moddasiga muvofiq, 18 yoshga to‘lmagan xodimlarga davomiyligi kamida 30 kalendar kun bo‘lgan yillik mehnat ta’tili beriladi. Ular ushbu ta’tildan o‘zlari uchun qulay bo‘lgan vaqtda foydalanish huquqiga ega.

Shuningdek, voyaga yetmagan xodimlar bilan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishda qonunchilikda nazarda tutilgan

Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

qo‘shimcha kafolatlarga rioya etilishi lozim. Bu kafolatlar voyaga yetmaganlarning mehnat munosabatlarida huquqiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

6. Amaliyotda uchraydigan muammolar va ularning huquqiy tahlili

Qonunchilikda voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normalar mavjud bo‘lsa-da, ularni amaliyotda to‘liq ta’minlash bilan bog‘liq ayrim muammolar saqlanib qolmoqda.

Birinchi muammo — mehnat munosabatlarining norasmiy tashkil etilishidir. Ayrim hollarda o‘quvchilar yozma mehnat shartnomasisiz ishlaydi. Natijada ish haqi o‘z vaqtida to‘lanmasligi, ish vaqti me’yorlarining buzilishi yoki ish beruvchi tomonidan qonuniy majburiyatlarning bajarilmasligi kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Ikkinchi muammo — ish beruvchilarning mehnat qonunchiligi talablarini yetarli darajada bilmasligidir. Ba’zi ish beruvchilar voyaga yetmaganlar uchun belgilangan qisqartirilgan ish vaqti, majburiy tibbiy ko‘rik va taqiqlangan ish turlari to‘g‘risidagi qoidalarga yetarlicha e’tibor bermasligi mumkin.

Uchinchi muammo — ta’lim va mehnat faoliyati o‘rtasidagi muvozanatning buzilishidir. Ayrim o‘quvchilar daromad topish maqsadida ta’lim jarayoniga ajratilishi lozim bo‘lgan vaqtni ishga sarflashi mumkin. Buning oqibatida o‘zlashtirish darajasi pasayishi, jismoniy va ruhiy charchoq yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

To‘rtinchi muammo — voyaga yetmaganlarning o‘z mehnat huquqlarini yetarlicha bilmasligidir. O‘z huquqlaridan xabardor bo‘lmagan o‘quvchi noqonuniy ish sharoitlariga rozi bo‘lishi yoki o‘ziga nisbatan sodir etilgan huquqbuzarlik haqida tegishli organlarga murojaat qilmasligi mumkin.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Shu sababli voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini himoya qilish faqat qonunchilik normalarini belgilash bilan cheklanmasligi kerak. Ushbu normalarning amalda bajarilishini ta’minlash, huquqiy savodxonlikni oshirish va davlat nazoratini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

7. Voyaga yetmaganlar mehnat huquqlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini yanada samarali himoya qilish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, umumta’lim maktablari va professional ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga mehnat qonunchiligi bo‘yicha maxsus huquqiy tushuntirish mashg‘ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda ishga qabul qilish yoshi, mehnat shartnomasi, ish vaqti hamda voyaga yetmaganlarning huquqlari haqida tushunchalar berilishi lozim.

Ikkinchidan, o‘quvchilarni ishga qabul qiluvchi tashkilotlar uchun voyaga yetmaganlar mehnatidan foydalanish bo‘yicha sodda va tushunarli uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish zarur.

Uchinchidan, o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtda qonuniy ishlashi uchun xavfsiz va mos ish o‘rinlarini kengaytirish kerak. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, dizayn, tarjima, kutubxona va ijodiy faoliyat yo‘nalishlaridagi yengil mehnat imkoniyatlarini rivojlantirish foydali bo‘ladi.

To‘rtinchidan, mehnat inspeksiyasi tomonidan voyaga yetmaganlar mehnatidan foydalanayotgan ish beruvchilar faoliyatida qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan nazorat samaradorligini oshirish lozim.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Beshinchidan, ota-onalar va qonuniy vakillarning huquqiy xabardorligini kuchaytirish zarur. Chunki ular voyaga yetmaganlarning mehnat faoliyati xavfsiz, qonuniy va ta’lim jarayoniga mos tashkil etilishida muhim rol o‘ynaydi.

Oltinchidan, o‘quvchilarning ta’lim va mehnat faoliyati o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda ta’lim muassasalari, ota-onalar va ish beruvchilar hamkorligini rivojlantirish lozim.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini amalda ta’minlash, noqonuniy bolalar mehnatining oldini olish va yoshlarning kasbiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini ta’minlash huquqiy davlat va ijtimoiy adolat tamoyillarining muhim ko‘rinishlaridan biridir. Yoshlarning mehnat faoliyatida ishtirok etishi ularning mustaqil hayotga tayyorlanishi, kasbiy ko‘nikmalar hosil qilishi va iqtisodiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida voyaga yetmaganlarni ishga qabul qilish yoshi, qisqartirilgan ish vaqti, tibbiy ko‘rik, xavfsiz mehnat sharoitlari, mehnat ta’tili va mehnat shartnomasini bekor qilishdagi qo‘shimcha kafolatlar belgilangan. Ayniqsa, 15 yoshga to‘lgan o‘quvchilarga ota-onasidan birining yozma roziligi bilan o‘qishdan bo‘sh vaqtida yengil mehnat bilan shug‘ullanish imkoniyatining berilishi yoshlarning mehnatga tayyorlanishi uchun muhim huquqiy asos hisoblanadi.

Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarning mehnat qilish huquqi ularning ta’lim olish huquqi, sog‘lig‘i va xavfsizligi hisobiga amalga oshirilmasligi kerak. Mehnat faoliyati yoshlarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilishi, aksincha, ularning ta’lim olish imkoniyatlarini cheklamasligi lozim.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Shunday ekan, voyaga yetmaganlar mehnatini tartibga solishda davlat organlari, ta’lim muassasalari, ota-onalar va ish beruvchilarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikda belgilangan kafolatlarning amalda bajarilishini ta’minlash orqali yoshlarning qonuniy mehnat qilish huquqi va bolalik manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash mumkin.

Umuman olganda, voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini himoya qilish faqat ularni mehnat munosabatlarida cheklash emas, balki xavfsiz, adolatli va ta’lim bilan uyg‘unlashgan mehnat muhitini yaratishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yilgi yangi tahrir.

2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2022-yil 28-oktabrdagi O‘RQ-798-son Qonun.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 2008-yil 7-yanvar, O‘RQ-139-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyuldagi 290-son qarori.

5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi. 1989-yil 20-noyabr.

6. Xalqaro mehnat tashkilotining 138-sonli “Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to‘g‘risida”gi konvensiyasi.

7. Xalqaro mehnat tashkilotining 182-sonli “Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va ularga barham berish bo‘yicha shoshilinch choralar to‘g‘risida”gi konvensiyasi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Huquqiy ma’lumotlar. https://advice.adliya.uz

Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

9. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz